



PAPER

O‘QITUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mamatqulova Malikaxon Vahobxon qizi ^{1,*}

¹Qo‘qon davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası PhD dotsent

* mamtqulova68@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda shaxsining ijodkorlik qobiliyati shakllanganlik mezonlari va darajalarini ishlab chiqish va pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘quv faoliyatida talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini samarali amalga oshirilishini ta‘minlovchi pedagogik sharoitlar yoritib o‘tilgan.

Key words: Ijodkorlik qobiliyatlari, motivatsiya, pedagogik ijod mohiyati, faoliyat, pedagogik mexanizmlar, pedagogik ijod darajalari.

Kirish

Respublikamizni pedagogika oliy ta‘lim muassalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, o‘quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, pedagogik mexanizmlarini yaratishga oid majmuaviy islog‘otlar olib borilmoqda. Mazkur islohotlar zahirida o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish orqali vazifalarni hal qilish, muammolarni ilgari surish, prinsipial yangi ijodiy yechimlarni topishga qodir mutaxassisni tayyorlash imkonini beradi. Hozirgi kunda bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy qobiliyatlari haqidagi turli fikrlarni o‘rganishdan ko‘rinadiki, mustaqil va ijodiy fikrlash o‘qituvchi profsssiogrammasining hozirgi sharoitdagi doimiy

va eng muhim komponentlaridan biri sanaladi. Shaxsning ijodkorlik qobiliyatlarini o‘rganishga kirisha turib, ba‘zi tushunchalarni aniqlab olish zarur: shaxs, qobiliyatlar, ijod. Bu tushunchalarning hammasi bir xil ma‘nodagi talqinga ega emas, bu esa biz-dan biror bir vazifani tanlab olishni talab qiladi. Ijodiy tafakkur tushunchasi insonning bilish qobiliyati asosida uning intellektual salohiyati va bunyodkorlik faoliyatini belgilaydi, hissiyot va tasavvurlari, obrazlar haqidagi tushunchalar tuzilishi, jonli mushohada va aqliy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ijodiy tafakkur – tabiiy va ijtimoiy dunyoni inson maqsadlari va ehtiyojlariga mos ravishda, borliqning ob‘yektiv qonunlari asosida qayta o‘zgartirishga qaratilgan rasional faoliyat sifatida tushuniladi.

Compiled on: May 3, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review). Ijodiylik, ijodkorlik va kreativlik masalalari bo'yicha respublikamizning pedagog olimlari M.Abdullayeva, A.A.Abdudodirov, F.T.Otabayeva, B.R.Adizov, T.Aliboyev, N.N.Alimov, Sh.Axmedova, Sh.T.Boltayeva, G.N.Ibragimova, D.M.Maxmudova, Z.T.Nishanovalar tomonidan ilmiy tadqiq qilingan. M.Abdullayeva maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ularning estetik tasavvurlari, bilimlari asosida dunyoqarashni shakllantirishning turli shakllari xususida o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. Durдона asarlar namunalari, kino san'ati, musiqa san'ati, tasviriy san'at va bir qancha usullarni tahlil qilib o'tgan. Tasviriy san'at turi, undagi muayyan mazmun va mohiyat mavjudligini tasavvur etish, anglashning birinchi jihati bo'lib, tasviriy san'atning rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik turlaridan, ularning bir-biridan farqini elementar belgilari bo'yicha ajrata olish, uning har bir turining o'z yo'nalishi (manzara, portret, natryumort, batal, maishiy, kompozision, anumalistik) mavjudligini va ularning tasavvurni rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritib bergan.

Ijodiy qobiliyatlarni alohida va ijodiy faoliyat tajribasini yaxlit o'zlashtirish faqat muammoli masalalarni yechish yo'li bilan mumkin bo'ladi. Qolaversa, murakkablik darajasi turlicha mashqlar to'plamini: noma'lum vaziyatda harakatlarning taxminiy asosini ishlashga, evristik tavsiyalarni qo'llashga, ijodiy faoliyatning individual uslubini shakllantirishga mashqlarni tanlash zarur. Shu munosabat bilan ma'lum konstruktiv sharoitlarni yaratish zarur: talabalarni ijodiy faoliyat mexanizmlari haqidagi axborot bilan qurollantirish; ta'lim mazmuniga ijodiy faoliyatning turli darajalariga oid masalalarni kiritish; tegishli o'quv-metodik ta'minot.

Ch.T.Shokirova esa "Ijodiy faoliyat bizning kundalik hayotimizni jozibali qiladi, fan va san'atni ijodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ijodsiz matematika, ona tili va boshqa fanlar taraqqiyotini tasavvur qilish mumkin emas. Biz har doim murakkab fikrni ifodalaganimizda yoki oq qog'ozni matn bilan qoraytirganimizda ijod qilamiz. Agar shu ishni samarali va g'ayrioddiy tarzda uddalay olsak, bizni rosmansa ijod kishisi deb atash mumkin,"- deb o'zining ta'rifini keltirgan [2]. V.I.Zagvyazinskiy yuqori darajadagi ilmiy va kasbiy kompetentlik; rivojlangan pedagogik tafakkur, ijodiy izlanishga

intilish, pedagogik texnikani egallaganlik; ma'lum pedagogik tajriba; intellektual malakalar, tasavvur va intuisiya-ning yetarli darajada rivojlantirish omillarini o'z tadqiqot ishlarida yoritib bergan. O'rganilgan ilmiy manbalar bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asoslashda metodik manba bo'lib xizmat qiladi. B.M.Teplovning nuqtai nazaricha, qobiliyatlar va iqtidor – qobiliyatlarining rivojlanishi uchun nasos vazifasini o'taydigan insonning tug'ma jismoniy xususiyatlarini farqlash lozim.

Qobiliyatlar iqtidori – miya va nerv sistemasining qandaydir genetik determinatsiyalangan anatomik-fiziologik xususiyatlari, qobiliyatlar shakllanish va rivojlanish murakkab jarayonining individual-tabiiy omillari sanaladi. Iqtidor ko'p qirrali, shu bois ular asosida turli qobiliyatlar rivojlantirilishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyat mexanizmlari haqidagi axborot bilan qurollantirish turli yo'llar bilan amalga oshirildi: o'qituvchi hikoyachi, mexanizmni ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotida ko'rgazmali qo'llash (evristika, analogiya, sintez orqali analiz mexanizmi), o'quv adabiyotlari bo'yicha ijodiy faoliyatning tayyor strategiyalari bilan tanishish (matematik masalalarni yechish), evristik tavsiyalarni birgalikda ishlash (EHMda masala yechish)ni talab etadi. Ta'lim mazmuniga ijodiy faoliyatning turli darajalariga oid masalalarni kiritish sharoitini ko'rib chiqamiz. OTMda o'qitish uchun masala – qandaydir hodisa, ob'yekt, jarayon haqida axborotlar tizimi, unda yo ma'lumotlarning bir qismi aniq ta'riflangan, qolgani noma'lum yoki ma'lumotlar, alohida tushunchalar, qoidalar o'rtasida yangi bilimlar, dalililarni izlash, o'zgartirish, muvofiqlashtirish va sh.k. ni talab qiladigan nomuvofiqlik, ziddiyatlar mavjud.

Ijodiy qobiliyatlarni bir necha didaktik funksiya bildirishi mumkin, ulardan biri uning yetakchi rolini belgilaydi. Masalalarning turli tasniflari mavjud. O'quv masalalarning operasion tuzilmalariga ko'ra bo'lingan fanlararo taksonomiyasini Blum ajratgan kognitiv sohadagi maqsadlarga asoslanib, taklif qildi:

1. O'quvchilardan mnemik operatsiyalarni talab qiladigan masalalar (izlanish, qayta yaratish).
2. Elementar fikrlash operatsiyalarini talab qiladigan masalalar (analiz, sintez, qiyoslash,

tasnif, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash).

3. Ma'lumotlar bilan murakkab fikrlash operatsiyalarini talab qiladigan masalalar (induksiya, deduksiya, interpretatsiyalash, verifikatsiyalash).

4. Fikrlash operatsiyalari haqida qo'shimcha fikrlarni talab qiladigan masalalar (sharhlar, hisobotlar, ma'ruzalar ishlab chiqish; mustaqil yozma ishlar).

5. Ijodiy fikrlashni talab qiladigan masalalar (amaliy ilovalash, kuzatishlar yoki fikrlash asosida aniqlash, muammoni mustaqil shakllantirish, muammoni hal qilish).

Pedagogik ijod o'quv-tarbiya jarayoni bilan uyg'unligi bois u doimo ijobiy natijalar berishi kerak. Salbiy natijalarga faqat xayoliy sinovlar va taxminlarda yo'l qo'yiladi, farazlarni tekshirishning qarama-qarshisidan kelib chiqib isbotlash, yolg'on va notug'ri ma'lumotlar berish kabi usullardan o'qituvchining amaliy faoliyatida mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Pedagogik ijodning eng muhim o'ziga xosligi pedagogik jamoaning ijod jarayoni bilan bog'liqligi bilan sanaladi. Pedagogik jamoa, ijodiy jamoa bo'lib, o'z muhitida doimiy yuzaga keladigan ziddiyat va nizolarga ega bo'lmasligi mumkin emas. Nizoli vaziyatlar va ziddiyatlarni bartaraf etish tanqid va o'z-o'zini tanqidni rivojlantiradi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi yo'llari va vositalarini izlashga majbur etadi, bu esa ijodiy jarayon sanaladi.

Sanab o'tilgan xususiyatlarning ko'pchiligini: vaqt zahirasi yo'qligi, natijalarning uzoq kutilishi, xatolarga yo'l qo'yib bo'lmasligi, tarqatishning qiyinligini pedagogik ijodning qiyinchiliklari sirasiga kiritish mumkin. Biroq pozitiv holatlar ham yo'q emas. Ijod ob'yekti va pedagogik jamoa bilan hamkorlikda ijod qilish katta rvg'batlantiruvchi potentsialga ega, bu pedagogni o'z ijodiy faoliyati doirasini kengaytirish va shaxsiy sifatlarini faol namoyon qilishga undaydi. Ijod o'qituvchi professionalizmining eng muhim mezonlaridan sanaladi. Qolaversa, kasbiy ijod uchun zarur deb ta'kidlanadigan sifatlar asosan shaxsning ijodiy qobiliyatlari bilan mos keladi. Pedagog uchun kommunikativ-ijodiy qobiliyatlarning roli muhim ekani ta'kidlanadi. Bo'lajak o'qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini o'quv faoliyatida rivojlantirish bo'yicha pedagogik ish jarayonida ta'limning umum tomonidan qabul qilingan metod va shakllari

ma'lum ijodiy bo'yoqdorlik kasb etishi lozim.

Tadqiqotchilik metodlarining funksiyasi: ijodiy faoliyat qirralarini shakllantirish; bu metodlarni izlash bo'yicha faoliyat davomida ilmiy bilish metodlarini egallashni ta'minlaydi. Fikrlash mantiqiy va madaniyat etaloni vazifasini muammoli bayon metodi bajaradi. Bu metodlar o'quv-ijodiy faoliyatni tashkil qilish metodlari deb yuritilishga haqli. Bundan tashqari, qo'llaniladigan maxsus metodlar mavjud. Aqliy hujum metodi (breynstorming).

A.F.Osborn tomonidan taklif qilingan. Maqsadi imkon qadar ko'p g'oya to'plash, fikrlash inersiyasidan xoli bo'lish, ijodiy masalani yechishda odatiy borishni tugatishdan iborat. Asosiy tamoyil – g'oyalar tanqidini taqiqlash. Yakunda nisbatan rasional, ulardan eng optimali tanlanadi. Empatiya metodi. O'zini ijodiy faoliyat ob'yekti yoki predmeti bilan tenglashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Unga shaxsiy hissiyotlar, emosiyalar, qobiliyatlar bag'ishlanadi. Shuning hisobiga o'rganilayotgan predmet funksiyalari anglashiladi.

Sinektika metodi – analogiyalarni izlash: bevosita analogiya, shaxsiy empatiya, simvol (ramziy) analogiya, fantastik analogiya.

Fokal ob'yektlar metodi – tasodifan tanlangan ob'yektlar belgilari yordamida sistemani o'zgartirish.

Morfologik tahlil metodi – turli elementlar, moddalar, hodisalarni birlashtirish yo'li bilan tizimni o'zgartirish.

Ushbu metodlar g'oyalar uchun zarur bo'lib, tadqiqotchilik va muammoli metodlar farazlarini ilgari surish bosqichida qo'llaniladi, shu bilan ularning ijodiy xarakteri kuchaytiriladi. O'quv-ijodiy faoliyatni tashkil qilish shakllari ham ta'limning mashhur shakllariga asoslanadi.

Ta'lim shakllariga ijodiy xarakterni qo'llaniladigan metodlar (ma'ruza-evristik suhbat, bilimlar muammoli bayon qilingan ma'ruza, g'oyalar generatsiyasiga bag'ishlangan mashg'ulot), konkret ijodiy operatsiyalarni qo'llashga yo'nalganlik (bitta topshiriq mashg'uloti, masala tuzish mashg'uloti, prognostik mashg'ulotlar, mashg'ulot-fantaziya); mustaqil ijodiy faoliyatga kirishish (ijodiy ishlar bajarish, ijodiy ishlar himoyasi, ijodiy ishlarni taqrizlash) baxsh etadi. Taqdim qilinadigan masalalar murakkablik darajasi va bo'lajak o'qituvchining

ijodiy qobiliyatlari rivojlanganlik darajasiga muvofiq yordam moslashtirilsa, ijodiy qobiliyatlarni individual rivojlantirish optimallasadi.

Masalalarni yechishda produktiv va reproduktiv harakatlarning birikuviga ko'ra tasniflanadi. Reprodktiv masalalar og'zaki shaklda berilgan ularni qo'llash shartlari ko'rsatilgan barcha elementar qadamlarni bajarish dasturi bo'yicha bajariladi[6]. Algoritmik masalalar formula, qoida shaklida berilgan algoritm bo'yicha ishlanadi, ya'ni masalani yechish uchun algoritmni kengaytirilgan dastur shaklida transformatsiyalash kerak bo'ladi. Shu sababli muammoli xarakterdagi harakatlar talab qilinadi. Transformatsiyalangan masalalar ma'lum formulalarni yangi vaziyatlarda qo'llashni talab qiladi, evristik qadamlar muhim rol o'ynaydi. Ijodiy - izlanishli masalalar mantiqiy tahlil va intuisiyani birlashtirib yechiladi. O'quv faoliyatining bo'lajak o'qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida tegishli o'quv-metodik ta'minoti o'quv adabiyotlari (ijod, ijodiy faoliyat mexanizmlari, masala yechish strategiyalariga oid pedagogik adabiyotlar; olimpiada xarakteridagi masalalar to'plami); ijodning turli darajalariga oid masalalar to'plami; predmet xarakteridagi muammolarni hal qilish bo'yicha evristik tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Tashkiliy holatlar ham anchagina muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini o'quv faoliyatida rivojlantirish bo'yicha pedagogik ish jarayonida ta'limning umum tomonidan qabul qilingan metod va shakllari ma'lum ijodiy bo'yoqdorlik kasb etishi lozim. Shu sababli tashkiliy sharoitni yaratishda o'quv-ijodiy faoliyatni tashkil qilish metod va shakllardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qitishning ayrim tadqiqotchilik, evristik, muammoli metodlari ijodiy faoliyat tajribasiga o'rgatishga mo'ljallangan. Tadqiqotchilik metodlarining funksiyasi: ijodiy faoliyat qirralarini shakllantirish; bu metodlarni izlash bo'yicha faoliyat davomida ilmiy bilish metodlarini egallashni ta'minlash. Evristik metod ijodiy faoliyat tajribasini elementlar bo'yicha o'zlashtirish, muammoli masalalarni yechishning ayrim bosqichlarini egallashni ta'minlaydi. Fikrlash mantiqi va madaniyat etaloni vazifasini muammoli bayon metodi bajaradi. Hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchining ijodiy

qobiliyatlari haqidagi turli fikrlarni o'rganishdan ko'rinadiki, mustaqil va ijodiy fikrlash o'qituvchi provfssiogrammasining hozirgi sharoitdagi doimiy va eng muhim komponentlaridan biri sanaladi. Buni professionalizm masalalari bilan shug'ullanadigan psixologlar ham ta'kidlaydi. «Odam-odam» tipidagi kasb vakillari bilish faoliyati xususiyatlarini tadqiq qilishda kuzatiladiki, nostandart vaziyatlar solumning normal stixiyasi sanaladi. Pedagogik ijodning namoyon bo'lish sohasi pedagogik faoliyatning asosiy komponentlari tuzilmasi bilan belgilanadi va uning amalda barcha tomonlarini: rejalashtirish, tashkil qilish, realizatsiyalash va natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi.

Pedagogik faoliyat o'qituvchining ijodiy jarayonning quyidagicha umumiy mantiqini saqlaydi:

1) pedagogik vazifani hal qilishga qaratilgan pedagogik g'oyaning yuzaga kelishi – o'qituvchining ijodkorlik fazilatlarini ta'lim-tarbiya mazmunida namoyon bo'lish jarayoni bo'lib, o'quvchining faoliyatini rivojlantirishni nazarda tutiladi.

2) g'oyani ishlash – o'qituvchining ko'zlangan maqsadga samarali va unumli erishishga qaratilgan pedagogik va psixologik yondashuvni inobatga olishga asoslangan intelekt salohiyat sanaladi.

3) pedagogik g'oyani faoliyatda, kishilar bilan muloqotda amalga oshirish, ijod natijalarini tahlil va baholashdan iborat.

Ijodning boshqa ko'plab (ilmiy, badiiy, texnik) turlari bilan umumiylikka ega bo'lgan pedagogik ijod ma'lum o'ziga xosliklarga ham ega. Pedagogik ijod dialektik xarakterga ega. O'qituvchi bolalarning o'sish va rivojlanishi jarayonida, doimiy o'zgarib turadigan sharoitda ijodkorlik qiladi. Pedagogik ijod jarayoni doimiy o'z-o'zini tahlil va o'z-o'zini baholashni talab qiladi. Biroq ijodiy harakatning dinamikni bu kabi tahlil uchun hamisha ham vaqt qoldiravermaydi, ko'pincha u intuitiv darajadagi qarorlar, ongosti faoliyati bilan almashtiriladi.

Xulosa va takliflar

Ijodiy qobiliyatlar rivojlantirish holatini baholash mezonlarini qabul qilinadi: muammoni topish muvaffaqiyati (ko'rsatkichlari: notanish vaziyatlarda muammoni ko'rish, tanish vaziyatlarda muammoni ko'rish, muammoni shakllantirish, muammoni tushunish

muvaffaqiyati ko'rsatkichlari: muammoni qayta shakllantirish, masalani yoki uning qismlarini oldin yechilganiga nisbatan tasniflash, bilimlarni yangi vaziyatlarga ko'chirish), g'oyalarni generatsiyalash muvaffaqiyati (ko'rsatkichlari: fikrlash nozikligi, tasavvur va assotsiatsiyalash yengilligi, fikrlash dialekti), g'oyalarni tekshirish muvaffaqiyati (ko'rsatkichlari: g'oyalar tahlili, bashoratlash, fikrlash tanqidi) kabilardan iborat. Rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlariga esa muvofiq ijodiy qobiliyatlarning rivojlanganligining quyi, o'rtachadan past, o'rtacha, o'rtachadan yuqori, yuqori darajalarini farqlanadi.

Ijodiy qobiliyatlar rivojlanganlik darajasini baholashda mezonlar ifodalanganligining miqdor baholaridan foydalanildi: agar barcha mezonlar ifodalanganlik miqdor bahosi 4 dan kam bo'lmasa, darajani yuqori; 3 dan kam bo'lmasa – o'rtachadan yuqori; 2 dan kam bo'lmasa – o'rta; 1 dan kam bo'lmasa o'rtachadan past; boshqa hollarda quyi, deb hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish modeli mazmun, texnologik komponentlardan iborat. Mazmun komponentida ko'rsatilgan asosiy ish yo'nalishlaridan tashqari, rivojlantirish jarayonini optimallashtiruvchi holatlar ham ta'kidlandi. Texnologik komponent: ta'lim shakllari (ma'ruza, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultatsiyalar, yuqori kurslarda kurs va diplom ishlari); o'qitish metodlari (tushuntirish – illyustrativ, reproduktiv, muammoli bayon, evrsitik, tadqiqotchilik); ta'lim vositalari (o'quv adabiyotlari, tarqatma material, jadvallar, raqamli proyektor, kompyuterlar, telekommunikatsiya tarmoqlari) orqali aniqlashtirildi. Mazkur vaziyat bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini beradi.

REFERENCES

1. Abdullayeva M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtidorli bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning hamkorlik mexanizmini takomillashtirish.: Avtoref. dis. ... ped. fan. bo'yicha falsafa dok. – Toshkent, 2017. – 50 b.
2. Shakirova Ch.T. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlan-tirish va dasturiy nazorat asosida o'qitish samaradorligini oshirish: Dis. ...

ped.fan.bo'yicha fal.dok. – Andijon, 2009. – 167 b.

3. Teplov B.M. Sposobnosti i odarennost. K 100-letiyu PI RAO. –№ 4 (33). Elektronnyy resurs: http://psyjournals.ru/files/93131/vestnik-psyobr_2012_n4_Teplov.pdf. Data obrasheniye: 15.12.2018.
4. Tilakova M. Yuqori sinf o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. – T.: Fan va texnologiya, 2016.
5. Tolipov O'Q. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlan-tirishning pedagogik asoslari.: Avtoref. dis. ... ped. fan. dok. – Toshkent, 2011.
6. Tolipov O'Q., Sharipov Sh.S. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Metodik qo'llanma. – Toshkent: O'zPFITI, 2011. – 51.